

RITM. TEMP

Ro‘zimurodov Ilyos Azamat o‘g‘li – Xalqaro Nordik universiteti musiqa ta’limi kafedrasida katta o‘qituvchisi

1- §. Ritm tushunchasi. Cho‘zimlarning asosiy va erkin bo‘linishi

Ritm¹ – bu metr asosida uyushtirilgan tovush cho‘zimlarining izchilligi.

«Ritm» so‘zi tartibga solingan, to‘g‘ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Bunday harakatning tashkillashtirish vositasi sifatida metrik aksentlari yordam beradi. Shunday qilib, metr va uning aksentlari ritm uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: 28- misolda keltirilgan kuyning ritm, metr va metrik aksentlari o‘zaro ta’sirida quyidagicha sxema tasvirda ko‘rsatilgan:

59

The notation for example 59 consists of two staves. The top staff is labeled 'Ritm' and shows a sequence of rhythmic patterns: a group of four eighth notes, a group of four eighth notes, a group of four eighth notes, and a group of four eighth notes. The bottom staff is labeled 'Tomir urishi' and shows a sequence of four quarter notes, each with an accent mark (^) above it, indicating the stress pattern.

Ritmik harakat jarayonida tayanch rolini met aksentlaridan tashqari **ritmik aksentlar** xam bajo keltirishi mumkin. Ritmik aksentlar takt cho‘zimlari orasida eng katta cho‘zimli tovushda paydo bo‘ladi. Chunki davomli tovushlar og‘ir, aksenti bor, tayanch tovush sifatida his etiladi. Mayda cho‘zimdagi tovushlar esa qisqa, yengil bo‘lib katta cho‘zimli tovushlarga qarab intilgandek tuyuladi.

Takt kuchli hissasidagi tovushning cho‘zimi kattaroq bo‘lishi samimiy hodisadir. Bu degani, metr (kuchli hissa) va ritm (katta cho‘zim) aksentlari bir-biriga to‘g‘ri kelishi odatiy hol. Shunga asoslanib, ritmning bir nechta turi ajraladi.

Ravon ritm – bir xil cho‘zimlardan iborat ritm shakli.

60

The notation for example 60 is a single staff in treble clef, 3/8 time signature, with a key signature of one sharp (F#). It is marked 'Juda tez' and 'P. Chaykovskiy. "Bolalar albomi"'. The melody consists of eighth and quarter notes with various accents.

60 a

The notation for example 60 a is a single staff in treble clef, common time (C), with a key signature of one sharp (F#). It is marked 'Allegro' and 'F. Kreysler. Preludiya'. The melody starts with a forte (f) dynamic and features various accents.

¹ Ritm – (grekcha ρυθμός) - oqim

Punktirli ritm² – nuqtali nota cho‘zimlarini o‘z ichiga olgan ritm shakli.

61

S. Prokofyev.
"Romeo va Julietta"



Sinkopali ritm – sinkopasi mavjud ritmik shakl.

62



Musiqada asosiy cho‘zimlarning ikkita teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi cho‘zimlarning **asosiy bo‘linishi** deb aytiladi.

Asosiy cho‘zimlarning ikkitaga emas, balki istalgan teng qismlarga bo‘linishi **erkin bo‘linishidir**.

Qaysidir asosiy cho‘zimning uchta teng maydaroq cho‘zimga bo‘linishi natijasida triol hosil bo‘ladi.

63



L. Beethoven. Sonata op. 27, №2
("Oydin sonata")

63 a



² Punkt – (lotincha punktum) – nuqta.

To'rtta qismga bo'linadigan cho'zim beshta teng qismga bo'linsa – **kvintol**, oltitiga – **seksol**, ettitiga – **septol** hosil bo'ladi.

64



Sakkizta qismga bo'linadigan cho'zim to'qqizta teng qismga bo'linsa – **novemol**, o'ntaga – **detsimol** paydo bo'ladi.

65



Nuqtasi bor cho'zimlar asosan uchta teng maydaroq cho'zimlarga bo'linadi. Agar nuqtali cho'zim ikkita teng qismga bo'linsa – **duol**, to'rttaga – **kvartol** hosil bo'ladi.

66



2- §. Sinkopa va uning turlari

Metrik va ritmik aksentlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi **sinkopani** hosil qiladi.

Sinkopaning yaqqol jihatlari – 1) kuchsiz hissada olingan tovushning cho‘zimi keyingi kuchli hissada ham davom etilishi; 2) kuchli hissaga pauzaning to‘g‘ri kelishi; 3) kuchsiz xissalarga ataylab aksent berilishi.

Sinkopalar o‘rnashgan joyi bo‘yicha taktaro, takt ichida va hissa ichidagi sinkopalarga ajratiladi.

Taktaro sinkopa – bir taktning kuchsiz hissada yozilgan nota ikkinchi bir taktning kuchli hissadagi xuddi shunday nota bilan liga yordamida bog‘lanadi:

67

O‘zbek xalq qo‘shig‘i "Olma anor"



Ol - ma a - no ring - ga bal - li.

Takt ichidagi sinkopa – taktning kuchsiz va kuchli hissalaridagi notalar liga bilan bog‘lanadi yoki ularning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bitta umumiy chuzimdagi nota bilan yoziladi:

68

O‘zbek xalq qo‘shig‘i "Do‘st menga ishonma"

Andantino 1. $\text{♩} = 69$



Tor qa - fas - da ze - rik - dik

68 a

O‘zbek xalq qo‘shig‘i "Cho‘yandi"

1. $\text{♩} = 80-84$



Yor de - dim a - do bo‘l - di - m(a)

Hissa ichidagi sinkopa – hissaning kuchli kismi cho‘zimi bo‘yicha kuchsiz qismidan qisqaroq bo‘ladi:

69

O‘zbek xalq qo‘shig‘i "Chamannor"

Andante $\text{♩} = 116$



Xo‘b yi - git - san yo - ring yo‘ - q(a)

Kechikib qoluvchi sinkopa – taktning kuchli hissada pauza qo‘yiladi

70

$\text{♩} = 196$ *O'zbek xalq qo'shig'i "Qari navo"*

The image shows a musical score for 'Qari navo', an Uzbek folk song. It is written in 2/4 time with a tempo marking of quarter note = 196. The score consists of two staves. The upper staff is the melody, and the lower staff is the accompaniment. The key signature has one flat (B-flat). The melody starts with a quarter rest, followed by a series of eighth and quarter notes, ending with a half note. The accompaniment follows a similar rhythmic pattern with eighth and quarter notes.

Kuchsiz xissalarga ataylab aktsent berilishi – asarning janri yoki mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

71

*N. Rimskiy-Korsakov.
"Shahrizoda" III qism*

Pochissimo piu mosso

The image shows a musical score for 'Shahrizoda' III part by N. Rimskiy-Korsakov. It is marked 'Pochissimo piu mosso'. The score consists of two staves. The upper staff is the melody, and the lower staff is the accompaniment. The key signature has two flats (B-flat and E-flat). The melody features a complex rhythmic pattern with eighth and sixteenth notes, and a series of slurs. The accompaniment follows a similar rhythmic pattern with eighth and sixteenth notes.

Ritm musiqaning asosiy ifodali vositalardan biri bo‘lib (kuy va garmoniya bilan baravar), uning jonli sur‘atidir. Ritmning ifodaliligi turli xarakterdagi harakatlar bilan bog‘liq. Tantanali yurish, jizzaki raqs, xotirjamlik yoki ehtirosli hayajonlik musiqasi ahamiyatli darajada ritm vositalari yordamida yaratiladi. Ritm metr bilan birgalikda har qanday kuyning janr xususiyatlarini aniqlaydi. Shuning uchun, valsni polkadan, marshni alla kuyidan ajrata olish qiyin ish emas.

3- §. Temp. Metronom

Temp – musiqani ijro etish tezligidir. Temp bir diqiqada metr hissalarini pulsatsiyasi tezligi bilan o‘lchanadi. Eskicha musiqada (XVII asrgacha) tempni aniqlaydigan maxsus belgilardan foydalanilmas edi. O‘sha zamon musiqqa amaliyoti uchun odatiy holat bo‘lib qolgan tovushning yangrash uzunligini unga biriktirilgan nota cho‘zimi bildirib turardi. Ijro etish tezligi shu notalar orqali o‘rnatilar edi. XVII asrdan boshlab, cholg‘u musiqqa rivojlannishi va uning obrazlar doirasi kengayishi bilan bog‘liq holda tempni so‘zlar orqali belgilash amalga oshgan. Tempga oid atamalar asosan italiyan tilda yozilib, asrning boshida ko‘rsatiladi. Ba‘zi kompozitorlar (masalan, R.Shuman, K.Debyussi, G.Maler, A.Shyonberg, M.Ravel va boshqalar) asarlarining tempini o‘z ona tilida belgilaydi.

Asosiy templar vazmin (og'ir), o'rtacha va tez templarga ajratiladi. Lekin, bir biriga yaqin templar o'rtasida aniq chegara yo'q.

Vazmin templar:

Adagio – og'ir

Grave – juda og'ir

Largo – keng

Lento – cho'zib

O'rtacha templar:

Andante – osoyishta

Moderato – o'rtacha

Sostenuto – salobatli

Allegretto – jonlanib

Tez templar:

Allegro - tez

Vivo, Vivace - jonliroq

Veloce – tez, yugurib

Presto – жуда тез

Asosiy temp atamalaridan hosil bo'lgan atamalar asosiy tempni yoki tezlashtiradi: Prestissimo, Vivacissimo, Andantino – Presto, Vivo, Andante templaridan tezroq, yoki susaytiradi: Allegretto – Allegro dan sustroq, Largetto – Largo dan tezroq.

Asosiy templardan chetlashilganda harakat yo'nalmasini aniqlovchi ayrim qo'shimcha atamalardan ham foydalaniladi:

molto – juda,

con moto – harakat bilan

non troppo – unchalik tez emas,

assai – nihoyat

non tanto – u qadar sekin emas

sempre – doimo,

meno mosso – kamroq harakat bilan,

piu mosso – koproq harakat bilan

Musiqa asarlari ijrosi yanada ta'sirchan va ifodali bo'lishi uchun umumiy harakatni sekin-asta tezlatish va susaytirish atamalar qo'llaniladi. Bular nota matnida quyidagi atamalar bilan yoziladi:

tezlashtirish uchun:

accelerando, stringendo – yanada tezlatib

animando – ruxlanib

stretto – ihchamlashtirib

susaytirish uchun:

ritenuto – saqlanibroq

ritardando – kechikibroq

rallentando – sekinlatib

allargando -- kengaytirib

Bu atamalar qisqartirigan tarzda berilishi mumkin: acc., rit., va hokazo. Gohida ularni yoniga poco – бoпa-бoпa, yoki poco a poco – oz-ozdan.

Dastlabki tempga qaytish Tempo I ёки a tempo, l'istesso tempo kabi atamalar bilan ko'rsatiladi.

Ba'zida temp atamasiga ijroning xarakterini aniqlaydigan so'zlar qo'shiladi:

santabile – kuychan,

con spirito – ruhlanib,

mesto – g'amgin,

dolce – nafis.

Temp atamaları harakat tezligi to'g'risida taxminiy tasavvur beradi. Tempni yanada aniqroq bilib olish uchun **metronom** degan asbobdan foydalaniladi. Metronom 1816 yil venalik mexanik Iogann Nepomuk Meltzel tomonidan ixtiro qilinib, XIX asr ikkinchi choragida qo'llanila boshladi. Ilk bor asar tempni metronom ko'rsatkichlari bilan ifodalash odatga L.Betxoven va M.I.Glinka tomonidan yo'l qo'yilgan. Ba'zi bir nota matni boshida "M.M." belgisi yoziladi. Bu asarning tempi «Meltzel metronomi» bo'yicha aniqlanishi maqsadga muvofiq demakdir.










Metronom bu – ko'chma posangi kiygizilgan mexanik mayatnikdir. Uning vazifasi bir daqiqada talab qilingan zarblarni bir-tekis ravishda sanab $\bullet = 60$ turishdir. Mayatnikning zarblari metr hissalariga muvofiqdir. Masalan, asar boshida nota yo'li ustida kabi yozuv berilsa, bu demak mayatnik bir daqiqada 60 ta zarba qiladi. Uning har bir zarbasi esa bitta choraktalik hissaga teng keladi. Mayatnikning tebranish tezligi ko'chma posangi yordami bilan to'g'rilanib turadi. Hozirgi kunlarda elektron va

online metronom turlari kop'yib ketgan.

Ijrochi tomonidan muallif ko'rsatgan tempning birmuncha o'zgartilishi har bir ijrochining badiiy didiga bog'liqdir. Odatda tempni birmuncha o'zganrtirish ijroning badiiy tomoniga ta'sir qilmaydi. Chunki ijrochilik mahorati musiqiy obrazni ochib berishga qaratilgan bo'ladi.

Musiqada tempning ahamiyati g'oyat katta. U musiqaning ifodali vositalaridan biridir. Har qanday obraz yoki psixologik holat ularning xarakteriga muvofiq tempda to'liq ochilib gavdalanadi. Masalan, vazmin templarda osoyishtalik yoki qayg'u, tantanavor yoki ruhan ko'tarinki holatlar aks etiladi. Tez tempda avvalom turli xil harakatlar, hayajonlik holati yoki dramatik to'qnashuvlar gavdalanadi. O'rta templar har xil xarakterdagi musiqani yaratishga imkoniyat beradi. Vazmin tempdan keyin o'rta temp harakatchanlik, tez tempdan so'ng esa – tinchlanish ko'rsatilishi sifatida idrok qilinadi. Shunday qilib, temp kontrastlik yaratishdagi muhim vositadir.

<p>Triol</p>	<p>Triol nota cho'zimini ikkita yoki to'rtta notani o'rniga teng bo'lgan uchta notaga maydalatib beradi. Triolda muayyan cho'zim ikkiga bo'linishi natijasida hosil boladigan maydaroq notalardan foydalaniladi. Quyidagi misolda nimchorak nota chorakning ikkiga bo'linishdagi notadir, demak triol ham nimchorak notalardan tashkil topadi.</p>
	 <p>The diagram illustrates the division of a quarter note. It starts with a single quarter note on a staff. An arrow points to two eighth notes, labeled '2 parts'. A second arrow points to a triplet of three eighth notes, labeled 'triplet 3 parts' with a '3' below the notes. A final arrow points to four sixteenth notes, labeled '4 parts'.</p>
<p>Kvintol Sekstol Septol</p>	<p>Oddiy o'lchovlarda (qarang 1.5. Oddiy Metr) Kvintol (beshta teng nota), Sekstol (oltita teng nota), Septol (yettita teng nota) muayyan cho'zim to'rtga bo'linishi natijasida hosil boladigan maydaroq notalardan foydalaniladi.</p>
	<p>Read each staff left to right to see all the divisions. →</p>  <p>This diagram shows the division of notes into groups of 3, 4, 5, 6, 7, and 8 parts. It is organized into three rows: 'whole note', 'half note', and 'quarter note'. Each row shows a single note, then two notes, then a triplet (3 notes), then four notes, then a quintuplet (5 notes), then a sextuplet (6 notes), then a septuplet (7 notes), and finally eight notes. Brackets above the notes indicate the number of parts in each group, with the number '3', '5', '6', or '7' written below the notes for the respective groups.</p>
<p>Turkumni qavslash</p>	<p>Turkum qavslari qovurg'achalari yo'q (butun, yarimtal, chorak) notalarga nisbatan qo'llaniladi. Ular nota boshi tomonidan raqam bilan qo'yladilar.</p>
<p>Duol va kvartol (murakkab o'lchovlarda)</p>	<p>Murakkab o'lchovlarda (qarang 1.6. Murakkab va Asimetrik Metr) duol va kvartol ko'rinishi oddiy metrda hissa bo'linishiga oxshaydi.</p>

	<p>Duplets:</p>  <p>looks like...</p> <p>Quadruplets:</p>  <p>looks like...</p>
<p>Duol va kvartol nuqtali nota sifatida</p>	<p>Duol va kvartol murakkab o'lovlarda xuddi nuqtali notadek yozilishi ham mumkin. Quyidagi misolda bitta hissaga teng keladigan oltita o'n oltitaliklar hissaning har yarimi uchta o'n oltitalikdan iborat bo'lgan ikkita guruhga ajralgan.</p>  <p>Groups of 3 tied sixteenths = dotted eighths = duplet eighths</p>
<p>Noodatiy turkum</p>	<p>Noodatiy turkum yoki tushunarsiz bo'lgan turkum, gohida, batafsil yoritilgan mutanosiblik bilan ko'rsatiladi.</p>
	<p>5:4 = 5 in the space normally taken by 4</p>  <p>OR showing the rhythmic value (5:4):</p> 
<p>Temp</p>	<p>Temp bu hissalar tezligidir, odatda BPM (beats per minute) bir daqiqada nechta hissa urishi ko'rsatdi. Gohida BPM oqrniga Melsel Metronomi M.M. ko'rsatkichi yoziladi. (Yogann Melsel 1800 yiqda metronom nomli uskuna yaratib, uni amaliyotga tadbiiq etdi). Yuqiridagi misolda temp belgilash uchun bir daqiqaga 60ta chorak nota, yoki har sekundiga bitta chorak nota tog'ri keladi degan formula yozilgan.</p>
<p>Itliyancha temp ko'rstkichlari</p>	<p>Musiqachilar temp belgilash uchun ko'p italiyancha atamalardan foydlanadi. Ayrimlari, tez-tez uchrab turadigan templar og'iridan boshlab tezgacha ro'yxatga olindi: Grave (tantanavor, rasmiy), Largo (juda sekin va keng), Lento (juda sekin), Adajio (sekin), Andante (yurish tezligi, o'rtacha sekin), Moderato (o'rtacha), Allegro (tez), Vivace (jonli), Presto (juda tez).</p>

Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Asosiy tushunchalar: ritm, sinkopa, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, bir tekis ritm, punktirli ritm, sinkopali ritm, temp, metronom.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Asosiy tushunchalarning har birini batafsil yoritib bering.

2. Asosiy cho‘zimlarning erkin bo‘linishidan hosil bo‘lgan qaysi cho‘zimlar turkumi tez-tez uchrab turadi?

3. Chap qolda metr pulsini, o‘ng qolda bir tekis ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini urib chiqing.

4. Asosiy cho‘zimlarni triol, kvintol, sekstol, septollarga hamda nuqtali cho‘zimlarni duol, kvartollarga bo‘lib, nota bilan yozing.

5. Turli xil ritmni qo‘llab bir necha kuy iboralarini bastalab, notaga tushirib chaling.

6. Asosiy cho‘zimning 2 tani o‘rniga 3 ta cho‘zimga bo‘linishi nima deyiladi?

kvintol

kvartol

triol

duol

Vazmin (og‘ir) tempni aniqlang.

grave

presto

andantino

vivace

Andante tempi qanday ijro etiladi?

osoyishta

tez

otashin

og‘ir

Allegretto tempi qanday ijro etiladi?

jonli

keng

sekin

juda tez